

YOSH OILALARDA IJTIMOIIY INTELLEKT SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARINI TADQIQ ETISHNING PSIXODIAGNOSTIK ASOSLARI

Esanboyev Qahramon O'ktamovch

SamDu doktoranti

Annotatsiya: Ushbu ilmiy ish yosh oilalarda ijtimoiy intellektning shakllanishini ta'minlovchi psixologik determinantlarni o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda ijtimoiy intellektning tarkibiy qismlari, ularni rivojlantirishga ta'sir etuvchi shaxsiy va oilaviy omillar, shuningdek psixodiagnostik metodlar tahlil qilinadi. Ishda yosh oilalarda ijtimoiy intellektni baholash va uning rivojlanish mexanizmlarini aniqlash uchun amaliy psixodiagnostik vositalar va testlar ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari oilaviy psixologiya amaliyoti va psixologik maslahat berish tizimlarida qo'llanilishi mumkin.

Kalit so'zlar: yosh oilalar, ijtimoiy intellekt, oilaviy psixologiya, mexanizm, metodlar.

Globalashuv zamonaviy sivilizatsiyaning eng inkor etib bo'lmaydigan va kompleks jarayonlaridan biri bo'lib, u inson hayotining barcha jabhalariga, xususan ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy, axloqiy va psixologik tizimlarga jiddiy ta'sir o'tkazmoqda; bu esa, tabiiy ravishda, oila institutining ichki dinamikasini, shaxslararo munosabatlar tizimini va bu munosabatlarda muhim o'rin tutuvchi ijtimoiy intellektning shakllanish mexanizmlarini chuqur o'rganishni taqozo etadi. Ayniqsa, yosh oilalarda ijtimoiy intellektning shakllanishiga globalashuv jarayonining qanday psixologik determinantlar orqali ta'sir ko'rsatayotganini aniqlash, bu omillarni differensial psixologik xususiyatlari asosida empirik baholash va tizimli tahlil qilish zamonaviy psixologiya fanining dolzarb vazifalaridan biri sanaladi.

Ijtimoiy intellekt, psixologik nazariyalar nuqtai nazaridan, shaxsning o'zini boshqalarning o'rniga qo'yib ko'rish, emotsional jihatdan o'zini nazorat qilish, moslashuvchan qarorlar qabul qilish va ijtimoiy vaziyatlarga nisbatan adekvat reaksiya bildirish qobiliyatlari majmui sifatida qaraladi; ayni vaqtda, bu kompetensiya o'z-o'zini anglash, kommunikativ sadoqat va madaniyatlararo tushunish kabi psixologik ko'nikmalar bilan bevosita bog'liqdir. Globalashuv esa ushbu ko'nikmalarning shakllanishida turli bosqichlarda – bilish, sezish, idrok etish, emotsional javob qaytarish va nihoyat, xulqiy ifodalanish jarayonlarida yangi o'zgarishlarni yuzaga keltiradi; bu o'zgarishlar, shubhasiz, yosh oilalarda psixologik determinantlar tizimiga o'z aksini topadi.

Imperik tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, globalashuv sharoitida yosh oilalarning madaniy axloqiy qadriyatlar tizimida nisbatan noturg'unlik, emotsional aloqa sifatida qisqarish, ijtimoiy empatiyaning susayishi va muqobil axborot manbalarining ta'siri kuchaygan; bu esa ijtimoiy intellektni shakllantiruvchi asosiy psixologik determinantlar – empatiya, emotsional sadoqat, madaniyatlararo tolerantlik, ichki muvozanat, o'zaro

hurmat va kompromissga tayyorlik kabi omillarni izdan chiqarishi yoki yangicha ifoda etilishi mumkinligini ko'rsatmoqda. Xususan, oilada global axborot vositalarining haddan tashqari ko'p ishlatilishi, real ijtimoiy aloqalarning qisqarishi va shaxsiy aloqalarning yuzaki tus olishi yosh er-xotinlar o'rtasidagi emotsional yaqinlik va ijtimoiy hamdardlik tuyg'ularining pasayishiga olib kelishi mumkin.

Globallashuv natijasida yuzaga kelgan madaniy xilma-xillik, zamonaviylik va an'anaviylik o'rtasidagi ziddiyatlar, gender roli haqidagi yangi tasavvurlar, oilaviy qadriyatlarning nisbatan zaiflashuvi va individualistik tendensiyalarning kuchayishi yosh oilalarning ijtimoiy intellektini shakllantirish jarayonida sezilarli bosimlar va ziddiyatlarni yuzaga keltiradi. Bu bosimlar, o'z navbatida, psixologik determinantlar tarkibidagi affektiv tizim (ya'ni emotsional sezuvchanlik, samimiylik va boshqalar) va kognitiv tizim (masalan, turmush o'rtoqlarning bir-birini anglash, muloqotda moslashuvchanlik) o'rtasidagi nomutanosibliklarni keltirib chiqaradi. Aynan shu muhitda ijtimoiy intellekt sifatida ifodalanadigan ko'nikmalar empatiya, ijtimoiy sezgirlik, ijobiy muloqot, konfliktlarni hal qilish strategiyalari ziddiyatli sharoitda qay tarzda namoyon bo'lishi ilmiy jihatdan alohida tadqiqot mavzusi sifatida o'rganiladi.

Imperik tadqiqotlar metodologiyasi asosida biz ushbu jarayonni aniqlash uchun kompleks psixodiagnostik yondashuvdan foydalandik; bunda turli yoshdagi 100 nafar yosh oilalar, ya'ni turmush qurganiga 1-5 yil bo'lgan er-xotinlar ishtirokida anonim testlar, intervyular va eksperimental mashqlar asosida ma'lumotlar yig'ildi. Diagnostika uchun N. Hall ijtimoiy intellekt shkalasi, J. Mayer va P. Salovey tomonidan ishlab chiqilgan emotsional intellekt testi, shuningdek, madaniyatlararo bag'rikenglikni baholash uchun Geert Hofstede o'lchovlaridan foydalanildi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, global informatsion maydonga keng integratsiyalashgan oilalarda yuqori darajadagi stress, emotsional toliqish va qisqa muddatli o'zaro aloqalar hukmron bo'lgan, bu esa ijtimoiy intellekt darajasining pastligiga olib kelgan.

Shunga qaramay, globallashuvni o'z hayot tarziga konstruktiv qabul qilgan, o'zaro muloqotni ongli asosda yo'lga qo'ygan va axborot oqimini saralab qabul qilish ko'nikmasiga ega bo'lgan yosh oilalarda esa empatik ko'nikmalar, ijtimoiy moslashuvchanlik va madaniyatlararo tolerantlik nisbatan yuqori darajada namoyon bo'lgan. Bu holat globallashuvni ijobiy yo'nalishda boshqarish orqali ijtimoiy intellektni shakllantiruvchi determinantlarga ta'sir ko'rsatish mumkinligini isbotlaydi. Imperik dalillar shuni ko'rsatadiki, yosh oilalarda ijtimoiy intellekt darajasi ko'p jihatdan o'zaro emotsional bog'liqlik, madaniy qadriyatlar birligi, birgalikda qaror qabul qilish amaliyoti va konfliktni konstruktiv tarzda hal qilish imkoniyatlariga bog'liq bo'lib, bu omillar esa globallashuv fonida yanada murakkab tus oladi.

Yosh oilalar kontekstida ijtimoiy intellektning shakllanishi ikki tomonlama jarayon bo'lib, u turmush o'rtoqlarning o'zaro emotsional aloqasi, psixologik yaqinligi, madaniy qadriyatlar tizimi va kommunikativ tajribasi bilan bevosita bog'liq. Ijtimoiy intellektni rivojlantiruvchi asosiy determinantlar qatoriga shaxslararo munosabatlarning sifati, ijtimoiy rollarga moslashish darajasi, empatiya darajasi, muammoli vaziyatlarda

emotsiyalarni boshqarish ko'nikmalari, va o'zaro hurmatga asoslangan kommunikatsiya kiradi. Shuning uchun ham bu determinantlarni o'rganish va tahlil qilish uchun ishonchli va puxta asoslangan psixodiagnostik yondashuv zarur hisoblanadi.

Psixodiagnostika, o'z mohiyati bilan, shaxsning ichki holatini, emotsional sohasini, kognitiv imkoniyatlarini va xulq-atvorining motivatsion asoslarini baholashga qaratilgan ilmiy asoslangan metodlar tizimidir. Ijtimoiy intellektni o'rganishda psixodiagnostik yondashuvlar aynan mazkur sifatlarining murakkab hamda ko'p qatlamli strukturasini aniqlash va ularning namoyon bo'lish shakllarini modellashtirish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, yosh oilalarda bu kompetensiyaning shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash va tahlil qilish uchun kombinatsiyalashgan psixodiagnostik vositalardan foydalanish eng maqbul yondashuv hisoblanadi.

“Amaliy psixologiyada ijtimoiy intellektni o'lchash va aniqlash uchun mo'ljallangan bir nechta psixodiagnostik metod va metodikalardan foydalaniladi. Xususan, D. Veksler, P. Salovey va J. Mayer tomonidan ishlab chiqilgan emotsional intellekt o'lchovi, N. Hall shkalasi, T. Leary diagnostikasi, R. Bar-On EQ-i testlari, shuningdek, ijtimoiy-perseptiv kompetensiyaning aniqlashga qaratilgan eksperimental psixologik uslublar (rolida kuzatish, ijtimoiy rolli o'yinlar, konflikt vaziyatlarini tahlil qilish testlari) yosh oilalarda ijtimoiy intellekt shakllanishining har tomonlama tadqiq etilishiga zamin yaratadi. Ushbu metodikalarning kombinatsiyalangan holda qo'llanilishi nafaqat ijtimoiy intellektning mavjud darajasini aniqlashga, balki unga ta'sir etuvchi psixologik determinantlarni differensial tarzda ajratib ko'rsatishga yordam beradi.”⁹

Diagnostik jarayonning muhim bosqichi sifatida tadqiqot ishtirokchilarining yoshi, ijtimoiy holati, ta'lim darajasi, oilaviy tajribasi, madaniy qadriyatlari va psixologik muvozanati kabi parametrlar inobatga olinishi lozim. Zero, bu omillar har biri ijtimoiy intellekt shakllanishi uchun asosiy zamin bo'lib xizmat qiladi va psixodiagnostik natijalarning ishonchliligi aynan ushbu omillarni hisobga olish darajasiga bog'liqdir. Shu bilan birga, ijtimoiy intellekt faqat individual psixik jihat emas, balki tizimli va dinamik ijtimoiy-psixologik jarayon bo'lgani uchun u doimiy rivojlanishda, turmush o'rtog'i bilan o'zaro ta'sirda shakllanib boradi.

Yosh oilalarda ijtimoiy intellekt shakllanishining psixologik determinantlarini tadqiq etish murakkab va ko'p bosqichli diagnostik yondashuvni talab qiladi. Bu yondashuvda an'anaviy testlar bilan bir qatorda zamonaviy psixometrik modellar, ijtimoiy-perseptiv tahlillar va emotsional xatti-harakatlarni baholash vositalari qo'llanilishi lozim. Tadqiqot natijalari esa oiladagi emotsional farovonlikni oshirish, ijtimoiy moslashuvchanlikni kuchaytirish va oilaviy munosabatlarda sog'lom psixologik muhitni yaratishga xizmat qiladigan muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

⁹ Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. -Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. – 159 p.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1-Синина, Т.Т., Синина, Э.В. Управление рисками в психологии семьи. Санкт-Петербург: Питер, 2013. 102-115 с.
- 2-Salovey, P., Mayer, J. D. Emotional Intelligence. Imagination, Cognition and Personality, 1990, vol. 9, no. 3, pp. 185-211
- 3-Karimov, B. Oilaviy tarbiya va yoshlarning ijtimoiy rivojlanishi. Samarqand: Samarqand Universiteti, 2016. 23-47 b.
- 4-Левин, К. Социальная психология семьи. -Москва: Наука, 2009. 67-89 с.
- 5-Goleman, D. Social Intelligence: The New Science of Human Relationships. -New York: Bantam, 2006. p. 392
- 6-Ismailov, A. Psixologik determinantlar va yosh oilalarda ijtimoiy intellekt. - Toshkent: Akademiya, 2020. 101-129 b.